



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



“IYMON” KONSEPTINING DUNYO TIMSOLIDAGI TALQINI THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT "FAITH" IN THE WORLDVIEW

Hasanova Laziza Safarovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi I bosqich magistranti

E-mail: lazizax39@gmail.com

ORCID:0009-0003-1897-070X

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/MZNN8697](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/MZNN8697)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “iymon” konseptining dunyo timsoli orqali qanday talqin etilgani falsafiy va badiiy jihatdan kengaytirilgan holda tahlil qilinadi. Navoiy va Bobur ijodida iymon insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy tanlovi, hayot mazmunini anglash hamda komil inson g‘oyasining shakllanishida muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyo esa foniylilik, sinov va imtihon ramzi sifatida tasvirlanib, iymon orqali anglanadigan murakkab tushuncha sifatida talqin etiladi. Maqolada iymon va dunyo tushunchalarining o‘zaro munosabati, tasavvufiy mazmuni hamda ularning Alisher Navoiy va Bobur asarlaridagi badiiy ifodasi misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: iymon, dunyo timsoli, zuhd, tasavvuf, komil inson, foniylilik.

Annotation. This article analyzes how the concept of “faith” is interpreted through the symbol of the world, expanded from a philosophical and artistic perspective. In the works of Navoi and Babur, faith manifests as an important criterion of human spiritual perfection, moral choice, understanding the meaning of life, and the formation of the idea of the perfect human. The world is depicted as a symbol of transience, trial, and test, and is interpreted as a complex notion comprehended through faith. The article highlights the interrelation of the concepts of faith and the world, their Sufi meaning, as well as the artistic expression of these ideas in the works of Alisher Navoi and Babur based on examples.

Keywords: faith, the embodiment of the world, asceticism, mysticism, the perfect human being, mortality.

Sharq mumtoz adabiyotida iymon tushunchasi insonning ichki dunyosi, e’tiqodi, axloqiy qarashlari va hayotiy vaziyatini belgilovchi markaziy konseptlardan biri hisoblanadi. Navoiy dunyoni o‘tkinchi, beqaror va aldovchi makon sifatida tasvirlab, iymonni insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ma’naviy nur deb talqin qiladi. Bu yondashuv har bir o‘quvchini axloqiy o‘rin tanlashga yo‘naltiruvchi pragmatik ta’sirga ega. Iymon islomiy manbalarda Allohga va oxiratga bo‘lgan ishonch sifatida namoyon etiladi. Falsafiy jihatdan esa u insonning hayot mazmunini belgilovchi ichki e’tiqod va ma’naviy tayanchdir. Sharq tafakkurida iymon sabr, qanoat va adolat bilan uzviy bog‘lanadi.



Pragmatik jihatdan esa baholovchi va yo'naltiruvchi ijobiy axloqiy me'yorlarga undaydi [Rahimov, 2001: 45].

Lingvokulturologik jihatdan iymon konsepti milliy tafakkur, madaniyat va til orqali shakllanadigan murakkab tushuncha hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotida dunyo ko'pincha foniy, o'tkinchi va aldovchi makon sifatida tasvirlanadi. Bu talqin insonni oxirat va ma'naviy komillikka undash g'oyasiga asoslanadi. Dunyo ne'matlariga haddan ziyod bog'lanish insonni iymondan uzoqlashtirishi mumkin [Маслова, 2001: 208].

Alisher Navoiy asarlarida dunyo insonni sinovdan o'tkazuvchi bir imtihon maydoni sifatida tushunishimiz mumkin. Pragmatik ta'sir jihatdan ogohlantiruvchi dunyoga haddan ortiq bog'lanmaslikka chaqiradi. Navoiy uchun dunyo insonni iymon bilan yoki iymonsizligini namoyon qiluvchi makondir [Abjalova, G'ulomova, 2022: 117]. Dunyo ne'matlari iymon, vijdon, halollik bilan boshqarilsagina foydali bo'ladi, aks holda insonni ma'naviy inqirozga duchor qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, Navoiy asarlarida iymon konsepti nutqiy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga uning nutqida iymon bilan bog'liq birliklar ko'pincha ogohlantirish yoki buyruq, nasihat, tanbeh ohangida qo'llanib, o'quvchining ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat iymon konseptining pragmatik jihatdan faol ekanligini, ya'ni muallifning kommunikativ maqsadini amalga oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Dunyo timsoli esa ushbu pragmatik ta'sirni kuchaytiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning “*Mahbub ul-qulub*” asarida iymon talqinini ko'rishimiz mumkin. Mazkur asarda iymonli insonning axloqiy fazilatleri, jamiyatdagi o'rni va mas'uliyati yoritiladi. Iymon adolat va insonparvarlik konseptlari bilan bog'lanadi. Masalan: “*Zuhd va dunyo*” bilan bog'lanmaslik Navoiy asarida zuhd tushunchasi shunday talqin qilinadi. “*Zuhd*” – bo'lar-bo'lmas orzulardan kechmoqlik, mol-u mansabning ketidan quvmaslik. “*Zuhd*” (عزْهُد) so'zi arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, dunyoviy narsalardan voz kechish, ularni ortiqcha istamaslik, kamtar va pok bo'lish ma'nolarini anglatadi. Islom adabiyotida esa zuhd – bu dunyoviy hayotga haddan ortiq berilmaslik, oxiratga intilish va qalbni pok saqlash tushunchasi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoviy boylik, mansab, shohlik, shon-shuhrat kabi aldamchi hislarga chalg'imaslik. Nafsdagi istaklarga cheklov qo'yish, ruhiy va ma'naviy kamolotga intilish. Tasavvufda zuhd – nafsni tarbiyalash, moddiy narsalardan ozod bo'lish va ruhiy poklanish sifatida tushuniladi. Bu holat iymon bilan mustahkamlanadi va insonni kamolotga yetkazadi [Yassaviy, 2018: 142].

Alisher Navoiy “*Mahbub ul-qulub*” va boshqa asarlarida zuhdni, dunyoga haddan ortiq berilmaslik, nafsdagi istaklarni boshqarish, oxiratni eslab yashash degan ruhiy-ma'naviy qoidalar sifatida tushuntiradi [Navoiy, 2011: 316]. Bundan tashqari A. Navoiyning butun dunyoga mashhur bo'lgan “*Xamsa*” sida qahramonlar taqdiri orqali dunyo va iymon munosabati ochib beriladi. Iymoni



mustahkam qahramonlar komillikka erishadi, iymoni sustlar esa halokatga yuz tutadi. Navoiy “*Hayrat ul-abror*” dostonida insonning ruhiy kamoloti va Allohga bo‘lgan sadoqat timsoli orqali iymon konsepti ifodalanadi. Dostonning tasavvufiy yondashuvida ruhiy poklanish, sabr, shukr va dunyo ne‘matlaridan voz kechish kabi qadriyatlarni tushunishimiz mumkinligi yaqqol tasvirlangan. Navoiy “*Hayrat ul-abror*” dostonida Allohga bo‘lgan muhabbat, nafsni poklash va ma‘naviy yuksalish timsollari orqali iymon konseptini chuqur falsafiy ifoda qiladi. “*Farhod va Shirin*” dostonida esa Farhodning Shiringa bo‘lgan sodiqligi, fidoyiligi va sabri iymonning zamonaviy badiiy talqini sifatida ko‘rsatiladi [Navoiy, 2011: 78]. Safarovning pragmatik yondashuvi badiiy matnlarni tahlil qilishda ham qo‘llaniladi. Misol uchun, “*Layli va Majnun*” dostonida ishq orqali ruhiy poklanish va Allohga bo‘lgan iymon nutqiy aktlar orqali ifodalanadi. Pragmatik tahlil iymon mavzusini matndagi nutq aktlari orqali o‘rganishga imkon beradi. Sh. Safarovning Pragmatik tahlilining markazida – nutq aktlari va kommunikativ niyat turadi va har bir nutq voqeada so‘zlovchi o‘z niyatini amalga oshirish uchun til vositalarini kontekstga mos tanlaydi. Bu nuqta nutqning ma‘no ishlab chiqarishida faqat semantik tarkib emas, balki nutqning tinglovchi ongiga ta‘sir ham asosiy omil ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv iymon va dunyo kabi ma‘naviy kontseptlarni tahlil qilishda muhim sanaladi. Masalan, adabiy matnda iymon konsepti ko‘pincha badiiy nutq aktlari orqali ifodalanadi. Pragmatik tahlil bu kabi matnlarni kontekstual ma‘noda, o‘quvchining axloqiy va hissiy reaksiyasini ham inobatga olgan holda ochib beradi. Shuning uchun Pragmalingvistika iymon haqidagi ifodalarni ham nutqiy ta‘sir va tinglovchi anglash jarayoni orqali o‘rgatadi. Shuningdek, Sh. Safarov lingvistik tadqiqotlarda pragmatikani semantikadan ajratib o‘rganish muhimligini ta‘kidlaydi, chunki semantika so‘zning leksik ma‘nosini, pragmatika esa nutq kontekstida tinglovchiga yetkazilayotgan ma‘noni tahlil qiladi. Bu pragmatik yondashuv iymon bilan bog‘liq kontseptlarni tahlil qilganda, masalan, din, tasavvuf, axloqiy qarorlar kabi mavzularni nutqiy aktlar orqali qanday ifodalanganini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, adabiy matnlarda iymon mavzusi ko‘pincha ogohlantiruvchi, nasihatbaxsh yoki motivatsion nutq aktlari orqali yetkaziladi va buning natijasida o‘quvchiga axloqiy e‘tiqodni anglashni va amal qilishni o‘rgatadi [Sirojiddinov, Abjalova, Sultomov, G‘ulomova, 2024: 48-53]. Bu esa bevosita pragmatik tilshunoslik tamoyillariga to‘g‘ri keladi, chunki nutqda ta‘sir adabiy matnning asosiy maqsadini ifodalab ko‘rsatadi [Safarov, 2008: 34]. Xuddi shu mulohazalar va g‘oyalar Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ham o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu olam ichra ne qoldi vafodin asar, Bobur,
Ko‘ngulni bog‘lama andin, ki barchasi guzar.

Ushbu baytda Bobur dunyoning bevafo va o‘tkinchi ekanini ta‘kidlaydi. “Ko‘ngulni bog‘lama” ifodasi zuhdning aniq poetik ko‘rinishi bo‘lib, dunyoni



butunlay tark etish emas, balki unga qalban bog‘lanmaslik g‘oyasi bilan ifodalanadi. Bu holat iymonning axloqiy-amaliy talqini sifatida baholanadi.

Har ishda Tangrining irodasini ko‘rdim.

Banda tadbir qilur, ammo taqdir hukmi ustundir.

Shoir bu o‘rinda inson harakati bilan Tangri taoloning ilohiy irodasi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Ushbu fikr iymonning tavakkalga asoslangan pragmatik modelini ifodalaydi inson harakat qiladi, ammo natijani Allohga topshiradi. Alloh hukmining har nedan ustunligini ifodalaydi.

Bu dunyo hech kimga vafo qilmadi, qilmag‘ay.

Ko‘p ranj-u mehnat ko‘rdim, ammo sabr ila o‘tdim.

Bobur dunyoni sinov maydoni sifatida izohlaydi. Iymon bu yerda sabr va matonat orqali namoyon bo‘ladi. Boburning “*Boburnoma*” asarini o‘rganar ekanmiz, biz uning pand-nasihat va ma‘naviy saboqlar bilan liq to‘la buyuk yodgorlik ekanini anglaymiz. Ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni bayon qiluvchi qadimiy manba, balki inson ruhiyati, iymon va vijdonning mavjudligi, qalb tozaligi Allohga bo‘lgan ishonchning ustunligini, undan nima so‘rasak bizga go‘zal sabrimiz orqali berishini qadriyatlar va hayotiy tajribalarni poetik va falsafiy uslubda yetkazuvchi muhim adabiy merosdir desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bobur har bir voqeani shaxsiy kuzatuvlari va tafakkuri orqali tasvirlagan bo‘lib, o‘quvchiga dunyoning o‘tkinchiligi, insoniy munosabatlar va qalbni pok saqlash zarurligini yetkazadi. Shu jihatdan “*Boburnoma*” faqatgina tarixiy emas, balki uning mazmunida axloqiy va amaliy yo‘nalishda ham o‘zining beqiyos ahamiyatiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. *Dunyo go‘zal, lekin bevafo; bugun bor, ertaga yo‘q bo‘lar.*

Bobur bu yerda dunyoning go‘zal ko‘rinishiga qaramay, uning vaqtinchaligi va bevafo ekanini ta‘kidlaydi. Boylik va hokimiyatning o‘tkinchi ekanligini unutmazligimizni yaqqol tushunib olishimiz mumkin. *Mol-dunyo ham bir kun kelib hech kimga qolmas.* Boylik va dunyoviy narsalarga, aldamchi hislarga haddan tashqari bog‘lanmaslik g‘oyasini keng qamrovda ochib beradi. Bugun qo‘lida behisob boylig-u davlati bo‘lgan inson ertaga undan ajralishi mumkin. Vaqt, kasallik, sinovlar yoki o‘lim oldida boyluk o‘zida o‘z o‘zidir. Tarixda ulkan saltanatlar, xazinalar egasi bo‘lgan shohlar bu dunyodan o‘tib ketgan, ammo ularning mol-dunyosi boshqalarga qolgan [Bobur, 2018: 115].

Demak, boyluk egasi bilan emas, zamon bilan yuradi. Inson esa bu dunyoda mehmon u bilan faqatgina mustahkam iymoni, qilgan yaxshiligi, va o‘qigan namozlari hamroh bo‘ladi, boyluk esa vaqtincha berilgan sinovdir.

Mol-dunyoga haddan tashqari berilish insonni ma‘naviy qashshoqlikka olib keladi. Jamiyatdagi obro‘sini ham mol-mulki bilan qozonolmaydi. Boylikni hayot mazmuniga aylantirgan kishi ko‘pincha insoniylik, mehr-oqibat, halollik kabi qadriyatlarni unutadi. Aslida esa insonni ulug‘laydigan narsa uning moli emas, balki amali, ezguligidadir. Qanchalik boy bo‘lmasin, inson ortidan faqat yaxshi nom va savobli ishlar qoladi. Dinimiz va adabiyotimizda ham boylukning

o'tkinchiligi ko'p bora ta'kidlangan. Agar mol-dunyo yaxshilik yo'lida sarflansa, ehtiyojmandlarga yordam berilsa, ilm va ezgulikka xizmat qilsa, u inson uchun saodat manbaiga aylanadi.

Alisher Navoiyning “*Mahbub ul-qulub*” asarida va g'azallarida, iymon, ruhiy poklik, dunyo va nafs bilan kurash va tavakkal orqali badiiy tarzda ifodalanadi. “*Boburnoma*” da tavba, sabr va shukr orqali ifodalangan iymon, insonning dunyo bilan munosabati va ichki mas'uliyatini namoyon qiladi. Bobur dunyoni o'tkinchi, lekin qadrlashga arziydigan maydon sifatida ko'rsatadi va qalbni unga ortiqcha bog'lamaslik g'oyasini targ'ib qiladi. Bobur ijodi iymonning axloqiy va pragmatik ko'rinishini ifodalaydi. Shunday qilib, Bobur va Navoiy ijodi orqali namoyon qilingan iymon, tavakkul, tavba va zuhd tushunchalarini hayotiy, axloqiy jihatdan boyitilgan tarzda o'rganishimiz mumkin ekan.

Adabiyotlar:

1. Abjalova M., Gulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston: til va ma'naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.
2. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
3. Abjalova M.A. and Gulomova N.S. Corpus of Alisher Navoi – Automatic Semantic Descriptor System of Historical Words, 2024 IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics, Electronics and Radio Engineering (PIERE), Novosibirsk, Russian Federation, 2024, pp. 1820-1825, doi: 10.1109/PIERE62470.2024.10805014.
4. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 316 b.
5. Alisher Navoiy. *Xamsa*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1-jild. 2014. B.73–78.
6. Gulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi. “O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025/11/10. – B. 336-343.
7. Rahimov A. *Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf*. – Toshkent: Fan, 2001. – B.45-47.
8. Safarov Sh. *Pragmalolingvistika monografiyasi*. – Toshkent: Fan, 2008. – B.32-34.



9. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK63289.2024.10773477.
10. Yassaviy, Xoja Ahmad. Devoni hikmat. Toshkent, Navro‘z, 2018. B. – 360. 142.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2017. – B.112.
12. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва. 2001. – С.208.